

ANJUMAN | KONFERENCLAR | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

ERNEST XEMINGUEY

(1899-1961)

Chol qushlar va ayniqsa, belinim oziq
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon
uni topolmaydigan jumlil va nozik dengiz
qaldirg'ochlariga axtariib ketar va qushlar
turmushi, qirin-qora va katta, kuchli
qushlarni hisobga olmayanda, buning kun
kechirishimizga qaraganda ham juda ogir.
Okean gohida shu qadar ham beshim dollar
ekan, nima uchun qushlarni mana bu
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va
gozal, ammo u goho to'xtatdan shunday
shaf-qatsiz bolis ketadiki, uning ustidagi
oziq dindagi chary urib chongib, oziq va
mangli ovoz bilan bir-birlariga qar bolis
uchgan bu qushlar unga nisbatan
beshinoya zalf va mo'ri ko'rinadi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI

AVGUST

№43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
11-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-11**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-11**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

1. Abdullayev Jamshid	
O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASH	7
2. Normetova Berajab Jobbarganovna	
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI	8



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

О'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASH

Abdullayev Jamshid,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

3-IDUMI jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash, jismoniy tarbiyaning maqsadlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi, aqliy va jismoniy mehnat.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari tabiiy sog'lom o'sishini ta'minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga shuningdek, vatan mudofaasiga tayyorlashdir.

Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda avvalo, chin yurakdan mustahkam sog'lik-salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo'lishning qadrini oila qadri bilan sharaflil bir o'ringa qo'yib kelishgan. Respublikamizda bahodirlar, polvonlar va botirlarga boy vatanimiz ular bilan g'ururlangan. Bugun ham Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida jismoniy madaniyat va sport turlarini milliy asosda qayta tiklash jarayoni sodir bo'lmoqda.

Sharq Aristoteli nomini olgan Abu Ali ibn Sino ham inson fazilatlaridan quyidagilarni sanab ko'rsatgan, chunonchi, jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. Aqlilik-biror ishni bajarishda shoshmashosharlik qilishdan saqlovchi quvvat. Ziyraklik- sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, jismoniy tarbiya o'quvchi va o'qituvchilar jamoalarining turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya daqiqalari, sport va jismoniy tarbiya targ'iboti, ishlab chiqarish ta'limi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni rag'batlantirishda, o'quvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshlarimizning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb mazmuniga bog'lash borasidagi dars jarayonlarida ahamiyati beqiyosdir.

She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning ijobiy xislatlari ichida, uning jismoniy chinlanishiga alohida e'tibor beradi va iftixor bilan uning jismoniy qobiliyatlarini maqtaydi. Dostonda yozilishicha Farhod aqliy tarbiya bilangina cheklanib qolmasdan jismoniy va harbiy mashqlar bilan ham shug'ullanib, chiniqa boshlaydi. Suvda suzish, chavondoqlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg'uloti bo'lib qoladi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr yaxshi ahloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar... Bunday tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila rux ikkisi bir choponning o'ng ili terisi kabitur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmak kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom vujud kerakdur».

Sport tufayli o'z kuchi va mahoratini quvonch bilan his etish, tabiat bilan muloqotda bo'lish azaldan kishilar dilini xushnud etgan. Demak, yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning aqliy, ahloqiy va jismoniy kamoloti kishilik tarixi taraqqiyotining barcha jabhalarida ulug'langan, qadrlangan. Jismoniy tarbiya kishilarga qulay ta'sir ko'rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport- har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. U dam olish bilan mehnatni almashtirib turishga yordam beradi, ijodiy his-tuyg'u manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.D. Novikov A.P. Matveev jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.

2. J. Tolipova N. No'monova Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Normetova Berajab Jobbarganovna

Urganch tuman 19-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, sog'likni mustahkamlash, chidamlilikning kuch, statik va tezlik turlarini rivojlantiradi

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismoniy tarbiyalash ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sog'liqni saqlashga, yaxshilashga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, yoshlarni mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga qaratilgandir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz: “Sog'lom avlod deganda men faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ruhan va fikran sog'lom, mustahkam e'tiqodli, ma'lumotli, ma'naviy boy o'z Vatanini sevuvchi, mard avlodni ham ko'zda tutaman”. Jismoniy tarbiya mazmuni ijtimoiy-tarixiy tajribaning shunday qismiki, u odam salomatligini saqlashni va mustahkamlashni, harakat madaniyatini ta'minlovchi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sanitariya-gigiyena madaniyati va normalari, qoidalarini bilishni va ularni bajara olishni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya to'g'risidagi ta'limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta'rif berilganda “badan tarbiya”, “jismoniy barkamollik”, “jismoniy tarbiya”, “jismoniy rivojlanish” degan asosiy tushunchalar qo'llaniladi.

“Badan tarbiya” tushunchasi eng umumiy hisoblanadi. Uning mazmuni quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejimga doir odatlar (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va h.k);

2) tabiatning tabiiy sharoitlarida (havo, quyosh va suv) organizmni chiniqtirish;

3) jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini, mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya tizimidagi ishlar xilma-xil yo'llar yordamida amalga oshiriladi, masalan, gigiyenik omillar (to'g'ri rejim, ovqatlanish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish) jismoniy mashqlar shular jumlasidandir. Rejim (tartib). Bolalar hayotining tartibi, bu – bedor yurish, uxlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashib turishidir. Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh hususiyatlarini;

2. Ovqat hazm qilish sistemasi ishidagi yosh hususiyatlarini;

3. Alohida hususiyatlar: asabiy va zaif bo'lgan bolalar ko'proq uxlashlari kerak;

4. Yil fasllari, iqlim sharoitlarini bolalar uyqusini tashkil etishda hisobga olish lozim.

Ovqatlanish. To'g'ri tashkil etilgan ovqatlanish bolalarni to'laqonli jismoniy tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Ovqatlanish o'sib borayotgan organism uchun g'oyat muhimdir, chunki u barcha to'qimalarning normal o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlarga eng ko'p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi. Chiniqtirishni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Chiniqtirishni butun yil davomida mavsumiy holatlarni hisobga olib, muntazam o'tkazish kerak.

2. Ta'sir etuvchi vositalarning kuchini asta-sekin kuchaytirish zarur.

3. Bolaning salomatligini, yosh hususiyatini, hissiy holatini, uy va ta'lim muassasasining sharoitini hisobga olish zarur. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga tanani ozoda tutish, to'g'ri ovqatlanish, tartibga rioya qilish va bolalarning



bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

O'quvchilar egallashi lozim madaniy-gigiyenik ko'nikmalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) ovqat yeyish ko'nikmalari;

b) o'z tanasini parvarish qilish ko'nikmalari;

d) xonada tartibga rioya etish, kiyimlardan foydalanish va unga qarash ko'nikmalari.

Jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan foydalanish. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan mahsus harakatlar, shuningdek, harakat faoliyatining turlaridir. U modda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi. Kichik sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda jismoniy mashq turlaridan biri – harakatli o'yinlar qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashning o'ziga hos xususiyatlari. Kun tartibi. Bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Bunda, 1-2 sinf va 3-4 sinf o'quvchilari uchun uxlash va bedor yurish qonuniyatlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan tartibda mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Jismoniy mashqlar. Har darsda o'quvchilar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: gimnastika shaklida, har darsda bir marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyaning quyidagi o'ziga hos vositalaridan foydalaniladi:

1) harakatli o'yinlar;

2) asosiy gimnastika;

3) sport mashqlari (konki uchish, suzish, velosipedda uchish);

4) bolalar tizimi.

Ko'rsatilgan vositalardan unumli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 11-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000